



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 27.01.2022 г. № 2

между «Ibrohim kelajagi Mag'rur» ОК и Ангрен шахар МТБ на общую сумму 181330000,00

Глава 251
Казначейский лицевой счёт 400522860274077091100251041 (в сумах)

| Наименование месяцев 2022 г. | Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации) | | | Всего |
|---------------------------------|--|--|--|-----------------------|
| | 4252300 | | | |
| Январь | 181 330 000,00 | | | 181 330 000,00 |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| Всего за год | 181 330 000,00 | | | 181 330 000,00 |

Всего 181330000,00 сум

Сто восемьдесят один миллион триста тридцать тысяч сум 00
тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 54399000,00 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в январь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



(подпись)

и.о. Н.А.Набиева
Ф.И.О.

(подпись)

и.о. Г.А.Жураева
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

Получил работник заказчика

(подпись)

«___» 20__ г.

«___» 20__ г.

SHARTNOMA №- 2

Angren sh.

27 yanvar 2022 yil.

Bundan buyon "BUYURTMACHI" deb ataluvchi Angren shaxar MTB nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi v.v.b. N.Nabiyeva bir tomondan va bundan buyon "YETKAZIB BERUVCHI" deb ataluvchi "Ibrohim kelajagi mag'rur" OK nomidan ustav asosida faoliyat olib boruvchi Djumabayeva I.S. boshqa tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma Buyurtmachi tovarni qabul qiladi va to'laydi, Yetkazib beruvchi esa quyidagi shartlarga muvofiq yetkazib beradi:

| № | Tovarlarning nomi | O'l. bir. | Miqdori | Narxi QQS siz | Umumiy summasi QQS siz |
|--------------|-------------------|-----------|---------|------------------|---------------------------|
| 1 | Lavlagi | kg | 3700 | 4400 | 16280000 |
| 2 | Oshqovoq | kg | 1000 | 4500 | 4500000 |
| 3 | Olma | kg | 16900 | 9500 | 160550000 |
| Jami: | | | | | 181330000 |

1.2. Shartnomaning umumiy summasi **QQS siz 181 330 000 (bir yuz sakson bir million uch yuz o'ttiz ming) so'mni** tashkil qiladi.

2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma summasidan 30 % miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % ni tovarni olgandan so'ng qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Yetkazib beruvchi" avans mablag'lari Yetkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" amaldagi GOST gamuvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Yetkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini savdolarni o'tkazish to'g'risidagi e'londa (buyurtmanomada) ko'zda tutilgan boshqa talablarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

Yetkazib beruvchidan Shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Buyurtmachi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Yetkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish. agar mazkur shartnomaning shartlaridja boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Yetkazib beruvchidan joylashtirilgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;
- Yetkazib beruvchidan mazkur shartnomat shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnomatga muvofiq o'zining joylashtirgan buyurtmanomasi bo'yicha yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Yetkazib beruvchiquyidagi xuquqlarga ega:

- "Buyurtmachidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;
- Buyurtmachidan joylashtirgan buyurtmanomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

3.4. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;
- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va me'yorlardan va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'l qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha 10(o'n) kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnomat shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Buyurtmachi:

- savdolarni o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqqligi;
- savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish yoki savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan shartnomat tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);
- tomonlar o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarish tugallangandan keyin besh yil mobaynida savdolar predmeti bo'yicha e'lonlar va texnik hujjatlarning asl nusxalari saqlanishi uchun javob beradi.

4.2. Tovarlarini tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa --- 10 foiz miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi. Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Yetkazib beruvchi:

- savdolar qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi;

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalarida shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- savdolar shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnomat shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.7. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgachahal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarnihal etish uchun bevosita iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga kelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar. 6.2 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

6.3 Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davomi qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

YETKAZIB BERUVCHI

"Ibrohim kelajagi mag'rur" OK

Manzil: Ohangaron t., Yoshlik MFY 19 uy

Tel./faks: 944071963

STIR:308799376

h/r: 20208000705431745001

Bank:Hamkor bank Angren filiali ATiB

MFO:011491

OKONX: 71280

Rahbar  Jumabayeva I.S.

BUYURTMACHI

Angren shahar MTB

Manzil:sh.Angren ko'ch.Yoshlik-21

Tel./faks: 66 2-72-97

G'azna x/v: 2340 2000 3001 0000 1010

Bank: Markaziy Bank Toshkent sh. XKKM

G'aznachilik bo'linmasi: Angren sh. f/l.

Byudj. tashkilotiSTIRi: 207267274

OKONX: 85100, MFO:00014

sh/h: 400522860274077091100251041

Rahbar



v.v.b. N.Nabiyeva

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJAT LOYIHASINING
QONUNCHILIKKA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyiha turi: Shartnoma

2. Loyiyaning nomi

Angren shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi va "Ibrohim kelajagi mag'zur" OK o'rtasida tuzilgan mahsulot yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma. Shartnomaning umumiy summasi **QQS siz 181 330 000 (bir yuz sakson bir million uch yuz o'ttiz ming)** so'mni tashkil qiladi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Angren shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 27-yanvar kuni ishlab chiqilgan va yuridik markazga taqdim qilingan.

4. Loyiha bo'yicha yuridik markaz xulosasi

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 437-456-moddalari, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 670-I-son qonuni, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Raimjonova

2022-yil 27-yanvar

Angren shahar MTB ishchi guruhining 2022 yil 24 yanvarda o'tkazilgan yig'ilish

BAYONNOMASI

Angren sh.

2022 yil 24 yanvar

Qatnashdilar: Angren shahar MTB mudiri v.v.b. N.Nabiyeva, kadrlar bilan ishlash sho'ba mudiri Z.Yakubova, bosh iqtisotchi S.Domolazova, oziq-ovqat hisobchisi S.Madramimova.

Kun tartibi: OK «Ibrohim kelajagi Mag'rur» maktabgacha ta'lim bo'limi MTT lariga uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish va 2021 yil 22 apreldagi 684-son Prezident Qaroriga asosan oziq-ovqat mahsulotlarini eng maqbul taklifini tanlab olish asosida shartnoma tuzib, xarid qilishni ta'minlash haqida.

Bu masala yuzasidan Angren shahar MTB mudiri v.v.b. N.Nabiyeva so'zga chiqib, «Ibrohim kelajagi Mag'rur» OK, «Angren Mubina nur» MCHJ va «Pretty fiance» OK laridan maktabgacha ta'lim bo'limi MTTlariga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish uchun taklif tushganligini ma'lum qildi.

| No | Mahsulotlar nomi | O'lchov birligi | OK «Ibrohim kelajagi Mag'rur» | «Angren Mubina nur» MCHJ | «Pretty fiance» OK |
|----|------------------|-----------------|-------------------------------|--------------------------|--------------------|
| 1 | Lavlagi | kg | 4400 | 5500 | 5000 |
| 2 | oshqovoq | kg | 4500 | 5500 | 5000 |
| 3 | Olma | kg | 9500 | 12000 | 11000 |

Taklif etilgan tijorat takliflarida «Angren Mubina nur» MCHJ, «Pretty fiance» OK lariga nisbatan FX OK «Ibrohim kelajagi Mag'rur» taklif etayotgan narxlari oziq-ovqat mahsulotlari arzon bo'lganligi sababli, ishchi guruxi OK «Ibrohim kelajagi Mag'rur» bilan shartnoma imzolashni ma'qul deb topishdi. Yuqoridan kelib chiqqan holda ishchi guruxi

QAROR QILADI

- OK «Ibrohim kelajagi Mag'rur» bilan oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish uchun shartnoma imzolansin.
- O'z vaqtida shartnomalar ro'yxatdan va mablag' o'tkazilishini ta'minlasin.

Ishchi guruh a'zolari:

 Z. Yakubova

 S. Domolazova

 S. Madramimova

27.01. 2022 yil

Angren shahar MTB mudiri

v.v.b. N.Nabiyevaga

Tijorat taklifi

| Nº | Mahsulotlar nomi | O' lchov birligi | narx |
|----|------------------|------------------|------|
| 1 | lavlagi | kg | 4400 |
| 2 | oshqovoq | kg | 4500 |
| 3 | olma | kg | 9500 |



Директордаста у.е. *[Signature]*





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga
"IBROHIM KELAJAGI MAG'RUR" Oilaviy korxonaga

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"IBROHIM KELAJAGI MAG'RUR" OK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

21.08.2021

1029587

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

308799376

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Oilaviy korxonaga

Joylashgan joyi:

Toshkent viloyati, Ohangaron tumani, Markaziy qo'rg'on MFY, Yoshlik
ko'chasi-19 uy.

Guvohnoma:

Toshkent viloyati, Ohangaron tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

to'monidan
berilgan



27.01. 2022 yil


Angren shahar MTB mudiri

v.v.b. N.Nabiyevaga

Tijorat taklifi

| № | Mahsulotlar nomi | O'lchov birligi | narx |
|----------|-------------------------|------------------------|-------------|
| 1 | Lavlagi | kg | 5000 |
| 2 | oshqovoq | kg | 5000 |
| 3 | olma | kg | 11000 |



Amangoba P. Yl. 

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI ANGREN SHAHAR



YURIDIK SHAXSNI DAVLAT RO'YXATIDAN 'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDA

GUVOHNOMA

Reestrda tartib raqami № 001378-14

2014 yil «26» avgust

guvohnoma raqami № 1912

Mazkur guvohnoma yuridik shaxs

«PRETTY FIANCE»

(davlat tilidagi to'liq nomi va qisqa nomi)

oilaviy korxonasi

ga

berilgan.

(yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer uchastkasi va uning maydoni ko'rsatiladi)

Tashkiliy-huquqiy shakli:

Mulkchilik shakli:

Pochta manzili:

Yuridik shaxs kodi:

Tarmoq kodi:

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami:

Qo'shimcha ma'lumotlar: 2016 yil 5 dekabrda arizasiga asosan DUBLIKAT guvohnoma berildi.

Angren shahar hokimligi huzuridagi
Yagona darcha markazi direktori: G'.Axmedov

(imzo)



THSh

120

MSh

190

MHOBT

1727407

KTUT

25259609

XXTUT

17220

STIR

303036600



27.01.

2022 yil

Angren shahar MTB mudiri

v.v.b. N.Nabiyevaga

Tijorat taklifi

| No | Mahsulotlar nomi | O'lchov birligi | narx |
|----|------------------|-----------------|--------|
| 1 | Kartoshka | kg | |
| 2 | Piyoz | kg | |
| 3 | Sabzi | kg | |
| 4 | Karam | kg | |
| 5 | Guruch | kg | |
| 6 | Lavlagi | kg | 5.500 |
| 7 | oshqovoq | kg | 5.500 |
| 8 | Olma | kg | 12.000 |
| 9 | Turp | kg | |
| 10 | Quruq meva | kg | |
| 11 | oq loviya | kg | |



Handwritten signature

Handwritten signature



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"ANGREN-MUBINA-NUR" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"ANGREN-MUBINA-NUR" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

24.04.2019

715413

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

306362914

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Toshkent viloyati, Angren shahri, 2/2-31-22,

Guvohnoma:

Toshkent viloyati, Angren shahri, DAVLAT XIZMATLARI
MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

